

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TAHLILI


Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2025- yilning 1-iyul holatiga 15 492 tani tashkil etdi. (2024 yilning shu davriga nisbatan 0,4 % ga kamaydi).

Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) (birlikda)




2025- yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 15 492 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 1 781 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko‘pi Jizzax shahrida 4 224 tani (yoki jamiga nisbatan 27,3%) ni, Sharof Rashidov tumanida 2 273 tani (14,7 %) va G‘allaorol tumanida 1 465 tani (9,5 %) ni tashkil qildi.



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
2025- yilning yanvar-iyun oylarida (jamiga nisbatan % da)
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2023-yil




2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 68,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 10,0 birlikni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida 1 781 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 641 taga (26,5% ga) kamayganligini ko'rsatmoqda.

2024-yil



2025- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da

Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Boshqalar



2025-yil



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,1 %), sanoat sohasida (13,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (24,3 %), qurilishda (5,8 %) va boshqa sohalarda (24,6 %) tashkil etilgan.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 458,7 mlrd so'mni (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 72,5 %), o'sish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 128,5 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 3 527,7 mlrd so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 88,7 %) va 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 %ni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 208,9 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 26,5 %) tashkil qildi;

– ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 7 720,1 mlrd so'mni tashkil qilib, (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 71,6 %) 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 12,7 %ga o'sdi;

– chakana tovar aylanmasi 1 328,0 mlrd so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 25,1 %) 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 %ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 62,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 79,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 94,8 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 13,7 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;


– avtomobil transportida 17 813,0 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 91,2 %) 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 45 123,3 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 99,2 %) 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 %ni tashkil qildi;

2025- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 68,9 % ni, sanoatda – 26,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,8 % ni, qurilishda – 88,7 % ni, tashqi savdo aylanmasida – 20,3 % ni tashkil qildi.


Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda iqtisodiy tarmoqlar kesimida ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1415,6 mlrd so'm), Sharof Rashidov (519,0 mlrd so'm) va Forish (352,9 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (1 594,5 mlrd so'm), Sharof Rashidov (733,5 mlrd so'm), G'allaorol (409,4 mlrd so'm) va Baxmal (387,8 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat iqtisodiyotida
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
Jizzax viloyati	26,5	88,7	71,6	98,8
<i>shahar:</i>				
Jizzax	33,1	86,2	44,3	98,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	98,9	84,0	71,5	99,8
Baxmal	98,9	88,4	81,4	99,9
G'allaorol	1,6	93,7	74,4	99,4
Sharof Rashidov	79,6	96,3	85,5	99,8
Do'stlik	20,0	89,7	74,0	99,8
Zomin	48,0	74,4	71,5	93,8
Zarbdor	72,0	98,1	70,9	99,8
Zafarobod	19,1	81,1	72,0	99,5
Mirzacho'l	35,2	89,3	56,0	96,8
Paxtakor	22,0	90,6	65,4	98,5
Forish	56,9	92,5	79,3	99,8
Yangiobod	98,0	87,8	70,3	99,9

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlikning eng kam ulushi G'allaorol (1,6 %) tumani hissasiga, eng ko'p ulushlar esa Arnasoy va Baxmal (98,9 %), Yangiobod (98,0 %) tumanlari hissasiga.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlikning eng kichik ulushlari Zomin (74,4 %), Zafarobod (81,1%), Arnasoy (84,0 %) tumanlari va Jizzax shahriga (86,2 %) to'g'ri keldi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari Sharof Rashidov (85,5 %) va Baxmal tumanlariga (81,4 %) to'g'ri keldi.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning asosiy qismi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirildi.